Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi

# SIRDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

*2022- YIL YANVAR-FEVRAL OYLARI MA’LUMOTLARI*



Sanoat statistikasi bo’limi
Tel.: 67-236-86-23

# Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar-fevral oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2021- yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 1733,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 112,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (55,0 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 953,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




***B** – Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C** – Ishlab chiqaradigan sanoat **D** – Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E** – Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 22,1 % ga o‘sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5,5 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,**
*(yanvar-fevral oylarida, % da)*




## Ishlab chiqaradigan sanoat




2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 764,0 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 44,1 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi**,
*(yanvar-fevral oylarida, % da)*




O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 3,9 % ni (2021- yilning yanvar–fevral oylarida – 3,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 3,2 % (1,3 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 18,6 % (22,8 %) va quyi texnologiyalisi – 70,1 % (77,0 %)ni tashkil etdi.

**Yuqori texnologiyali**




**O‘rta-yuqori texnologiyali**




**O‘rta-quyi texnologiyali**




**Quyi texnologiyali**



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-fevral | 2022- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Aroq, ming litr 100 % spirt** | 161,6 | 52,6 | -109 |
| **Sellyuloza, kg 90%** | 260598,0 | 1017731,0 | 757133 |
| **Tarkibida alkaloidlar bo'lgan yoki bo'lmagan gormonlar va antibiotiklar,t** | 954,5 | 223,6 | -730,9 |
| **Yumshoq bug'doy va spelta uni,** *ming t.* | 23,7 | 12,3 | -11,4 |
| **Paxta tolasi,** *ming t.* | 6,3 | 1,1 | -5,2 |

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-fevral oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 0,9 % ga oshgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,1 % tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 1,4 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 206,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-fevral oylarida)*









Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 5,8 % ga pasaygan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 42,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 3,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-fevral oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 35,0 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 80,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 32,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 11,8 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 247,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.








## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-fevral oylarida)*




2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 124,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,3 % ni, fizik hajm indeksi 109,0 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 32,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*(yanvar-fevral oylarida)*

2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plast-massa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 108,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 9,8 % ni, fizik hajm indeksi 202,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 74,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

*yanvar-fevral oylarida*




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 953,4 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (55,0 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida gazsimon yonilg‘ini quvurlar orqali taqsimlash bo‘yicha xizmatlar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 12,7 % ga oshganligi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,**

*(yanvar-fevral oylarida, % da)*




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-fevral | 2022- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 3006,7 | 3224,5 | 217,8 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 26,2 | 35,7 | 9,5 |

# Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

*yanvar-fevral oylarida*




Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10,7 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

*(yanvar-fevral oylarida, % da)*




| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-fevral | 2022- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar,** *mln.so‘m* | 7318,1 | 6742,0 | -576,1 |
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mln.so‘m* | 369,7 | 1322,0 | 952,3 |
| **Shahar ho‘jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar,** *mln.so‘m* | 1290,4 | 2589,1 | 1298,7 |

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 506,5 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 143,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 29,2 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to‘g‘ri kelib 39,1 % ni, shuningdek, Guliston shahri 19,0 % ni, Mirzaobod tumani 9,6 % ni hamda Guliston tumani 7,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyatning o‘sish sur’ati (143,1 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Mirzaobod tumani (246,9 %), Sirdaryo tumani (162,8 %), Guliston shahri (153,3 %), Shirin shahri (127,9 %), Oqoltin tumani (119,1 %), Guliston tumani (117,7 %) hamda Sardoba tumanida (112,8 %) qayd etildi.

## <u>Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati</u>

*2022- yilning yanvar-fevral oylarida*

| | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|---|---|---|---|
| Sirdaryo viloyati | 506,5 | 100 | 143,1 |

| | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|---|---|---|---|
| Guliston sh | 96,4 | 19,0 | 153,3 |
| Sardoba | 15,4 | 3,0 | 112,8 |
| Shirin sh | 3,9 | 0,8 | 127,9 |
| Sayxunobod | 29,6 | 5,9 | 112,7 |
| Yangiyer sh | 21,7 | 4,3 | 106,4 |
| Sirdaryo | 198,1 | 39,1 | 162,8 |
| Boyovut | 20,0 | 3,9 | 87,8 |
| Xovos | 21,1 | 4,2 | 107,1 |
| Guliston | 39,5 | 7,8 | 117,7 |
| Mirzaobod | 48,6 | 9,6 | 246,9 |
| Oqoltin | 12,2 | 2,4 | 119,1 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatning jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to‘g‘ri kelib, 49,8 % shuningdek, Mirzaobod tumani 14,2 %, Guliston tumani 11,8 % va Yangiyer shahri 5,5 % ni tashkil etdi.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022- yilning-fevral yanvar oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Sirdaryo viloyati | 278,4 | 100 | 180,5 |
| Guliston sh | 31,4 | 11,3 | 164,1 |
| Sardoba | 1,5 | 0,5 | 105,7 |
| Shirin sh | 1,2 | 0,4 | 213,8 |
| Sayxunobod | 1,9 | 0,7 | 112,3 |
| Yangiyer sh | 15,3 | 5,4 | 107,2 |
| Sirdaryo | 138,5 | 49,8 | 214,1 |
| Boyovut | 7,2 | 2,6 | 73,0 |
| Xovos | 4,8 | 1,7 | 148,3 |
| Guliston | 32,8 | 11,8 | 120,4 |
| Mirzaobod | 39,4 | 14,2 | 431,1 |
| Oqoltin | 4,4 | 1,6 | 147,4 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatning jami hajmidagi eng yuqori ulushi Guliston shahriga to‘g‘ri kelib 28,5 % ni, shuningdek, Sirdaryo 26,1 %  Sayxunobod 12,1 %, Xovos tumanlari 7,2 % ni tashkil etdi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022- yilning yanvar-fevral oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Sirdaryo viloyati | 228,2 | 100 | 114,3 |
| Guliston sh | 65,0 | 28,5 | 148,5 |
| Sardoba | 13,9 | 6,1 | 113,7 |
| Shirin sh | 2,7 | 1,2 | 108,0 |
| Sayxunobod | 27,7 | 12,1 | 112,7 |
| Yangiyer sh | 6,3 | 2,8 | 104,7 |
| Sirdaryo | 59,6 | 26,1 | 104,6 |
| Boyovut | 12,8 | 5,6 | 99,1 |
| Xovos | 16,4 | 7,2 | 99,1 |
| Guliston | 6,8 | 3,0 | 106,3 |
| Mirzaobod | 9,2 | 4,0 | 87,4 |
| Oqoltin | 7,8 | 3,4 | 107,5 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2022- yilning yanvar-fevral oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 242,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 14,0 %ni tashkil etdi.

## Viloyatning hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2022- yilning yanvar-fevral oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Sirdaryo viloyati | 1733,6 | 100,0 | 112,3 |
| Guliston sh | 146,3 | 8,4 | 88,4 |
| Sardoba | 16,4 | 1,0 | 106,0 |
| Shirin sh | 912,6 | 52,6 | 112,8 |
| Sayxunobod | 49,7 | 2,9 | 107,1 |
| Yangiyer sh | 61,4 | 3,5 | 83,5 |
| Sirdaryo | 309,9 | 17,9 | 122,3 |
| Boyovut | 58,8 | 3,4 | 103,2 |
| Xovos | 24,9 | 1,4 | 104,6 |
| Guliston | 60,1 | 3,5 | 113,2 |
| Mirzaobod | 54,0 | 3,1 | 119,4 |
| Oqoltin | 39,5 | 2,3 | 47,7 |

## Viloyatning jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyatning sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 52,6 %), Sirdaryo tumani (17,9 %), Guliston shahri (8,4 %), Guliston tumani (3,5 %), va Yangiyer shahri (3,5 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Oqoltin (2,3 %) hamda Sardoba (1,0 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Shirin shahrida (48068,5 ming so‘m), Sirdaryo tumanida (2362,3 ming so‘m) hamda Guliston shahrida (1583,7 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (1993,2 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 582,4 ming so‘m bo‘lgani holda, Sirdaryo tumanida – 1509,5 ming so‘mni, Guliston shahrida – 1043,7 ming so‘mni, Mirzaobod tumanida – 639,0 ming so‘mni, Yangiyer shahrida – 484,9 ming so‘mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2022- yilning yanvar-fevral oylarida, ming so‘m*

| | *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|---|
| **Sirdaryo viloyati** | 1993,2 | 582,4 |
| **Guliston sh** | 1583,7 | 1043,7 |
| **Sardoba** | 242,5 | 227,1 |
| **Shirin sh** | 48068,5 | 203,7 |
| **Sayxunobod** | 626,6 | 373,9 |
| **Yangiyer sh** | 1372,9 | 484,9 |
| **Sirdaryo** | 2362,3 | 1509,5 |
| **Boyovut** | 442,3 | 150,3 |
| **Xovos** | 254,1 | 215,7 |
| **Guliston** | 800,3 | 526,6 |
| **Mirzaobod** | 710,0 | 639,0 |
| **Oqoltin** | 738,8 | 228,4 |

## <u>Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi</u>

*2022- yilning yanvar-fevral oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 464,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 26,8 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Sardoba (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Boyovut (91,9 %), Xovos (75,1 %), Sayxunobod tumanlarida (73,8 %) hamda Guliston shahrida (61,7 %) kuzatildi.






Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki Oqoltin tumanida (35,7 %), Sirdaryo tumani (50,1 %), Yangiyer shahri (45,0 %) va Guliston (48,4 %) tumanlarida hamda Shirin shahrida 0,5 %) sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## <u>Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari</u>

*(2022- yil 1- mart holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 2212 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 539 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 24,4 %) Guliston shahriga, 366 tasi (16,5 %) Sirdaryo tumaniga, 197 tasi (8,9 %) Yangiyer shahriga, 193 tasi (8,7 %) Boyovut tumaniga, 172 tasi (7,8 %) Mirzaobod tumaniga, 163 tasi (7,4 %) Sayxunobod tumaniga to‘gri kelmoqda.




2022- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda 77 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 15 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi 19,5 %) Sayxunobod tumanida, 14 tasi (18,2 %) Guliston shahrida, 9 tasi (11,7 %) Boyovut tumanida,  8 tasi (10,4 %) Sirdaryo tumanida hamda 7 tasi (9,1 %) Yangiyer shahrida tashkil etildi.